



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



THE PERFECTION OF GLOBALIZATION'S REFLECTION IN MODERN SYMBOLIC-PHILOSOPHICAL INTERPRETATIONS

Zulfizar Shavkatovna Yakhshieva

Independent Researcher

Gulistan State University

Gulistan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: globalization, philosophical thought, symbol, culture, consciousness, integration, modernity, spiritual development.

Received: 23.10.25

Accepted: 24.10.25

Published: 25.10.25

Abstract: This article analyzes the modern philosophical and symbolic interpretations of the concept of globalization. The study highlights the socio-philosophical essence of globalization and its role in the processes of culture, consciousness, and technological progress. The author evaluates globalization as a general paradigm of human thought and examines its influence on cultural integration, information exchange, and the formation of global consciousness. The article demonstrates the ideological expression, philosophical meaning, and aesthetic reflection of globalization in modern culture through the system of symbols. The research results confirm that the symbolic expression of globalization in contemporary philosophical thought serves as an important theoretical basis for understanding the interconnectedness of humanity and the principles of common spiritual development.

GLOBALIZMNING ZAMONAVIY RAMZIY-FALSAFIY TALQINLARDA AKS ETISH TAKOMILI

Zulfizar Shavkatovna Yaxshieva

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Guliston, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: globalizm, falsafiy tafakkur, ramz, madaniyat, ong, integratsiya, zamonaviylik, maʼnaviy rivojlanish.

Annotatsiya: Ushbu maqolada globalizm tushunchasining zamonaviy falsafiy va ramziy talqinlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda globalizmning ijtimoiy-falsafiy mohiyati, uning madaniyat, ong va texnologik taraqqiyot

jarayonidagi o'rni yoritiladi. Muallif globalizmni insoniyatning umumiy tafakkur paradigmasi sifatida baholab, uning madaniy integratsiya, axborot almashinuvi va global ong shakllanishiga ta'sirini tahlil etadi. Maqolada ramzlar tizimi orqali globalizmning g'oyaviy ifodasi, falsafiy mazmuni va zamonaviy madaniyatdagi estetik aks-sadosi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari globalizmning zamonaviy falsafiy tafakkurdagi ramziy ifodasi insoniyatning o'zaro bog'liqligi va umumiy ma'naviy rivojlanish tamoyillarini anglashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishini tasdiqlaydi.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТРАЖЕНИЯ ГЛОБАЛИЗМА В СОВРЕМЕННЫХ СИМВОЛИКО-ФИЛОСОФСКИХ ИНТЕРПРЕТАЦИЯХ

Зульфизар Шавкатовна Яхшиева

Независимый исследователь

Гулистанского государственного университета

Гулистан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: глобализм, философское мышление, символ, культура, сознание, интеграция, современность, духовное развитие.

Аннотация: В данной статье анализируются современные философские и символические интерпретации понятия глобализма. В исследовании раскрывается социально-философская сущность глобализма, его роль в процессах культуры, сознания и технологического прогресса. Автор рассматривает глобализм как общую парадигму человеческого мышления и анализирует его влияние на культурную интеграцию, обмен информацией и формирование глобального сознания. В статье через систему символов показано идейное выражение глобализма, его философское содержание и эстетическое отражение в современной культуре. Результаты исследования подтверждают, что символическое выражение глобализма в современном философском мышлении служит важной теоретической основой для понимания взаимосвязанности человечества и принципов общего духовного развития.

Kirish. Ma'lumki, global metamorfoza nafaqat realistik, balki norealistik yo'nalish – modernistik, postmodernistik, neorealizm oqimlarini o'zida jamuljam qilgan asarlarda ham

namoyon bo'lmoqda. Bular G'arb va Sharq adabiyotining kesishgan chorrahasida, ya'ni F.Kafka, A.Kamyu, M.Prust, G.G.Mareks, Z.Freyd va boshqa yozuvchi, faylasuf, psixanalitik, esseistlar ta'sirida yuzaga kelganligini e'tirof etish joiz. Shu ma'noda, Ulug'bek Hamdam ijodidagi mana shu talqin o'ziga xosligi asta-sekinlik bilan rivojlanib, yozuvchi o'z qahramonlariga katta umuminsoniy muammolarni singdirishni dalolatlaydi. Adibning an'anaviy yo'sinda yozilgan romanlarida inson taqdiri, jamiyat hayotidagi o'zgarishlar bilan omuxtalikda ochib beriladi. Ayniqsa, adib o'z qahramonlariga katta masalalarni, chigal vaziyatlarda qanday yo'l tutish muhimligini ham keltirib o'tadi. Adib buning uchun tasvirni uch o'lchamli olam tarzida baholaydi. Xususan, "Muvozanat" romanida Yusufning hayotiy iztiroblari har bir o'quvchining botiniy dardiga aylanadi. Romanning eng xarakterli jihati Jaloliddin Rumiyl ijodiyoti bilan bog'liq tasavvufiy aqidalar negizida – islom va inson, din va hayot, Oliy Nizomga itoat qilish muhimligini reallashtiradi. Biror xalq yomi millat sajiyasi biror yozuvchiga "yuqishi", ta'siri botiniy, his qilish, anglash orqali mustahkamlanadi. Tarixdan ma'lumki, XIII asr adabiyoti turkiy xalqlarda o'zidan oldingi salafilar ijodini obdon o'rganish, ularni bir sistematik tarzda anglash negizida barqarorlashdi. IX-XI asrlar qomusiy yozuvchi, shoir, mutafakkirlar ijodini solishtirganimizda, bir davrda yashayotgan ijodkorlarning asarlarida umumiy mavzu anglashiladi. U ham bo'lsa shaxsning komilligi. Sharqda komil inson tushunchasi Ahmad Yassaviy zamonidan buyon talqin qilinib kelayotgan bo'lsa, mana shu tamoyil Navoiy, Ogahiy ijodining bosh mezoniga aylandi. XIII asr boshlarida, bundan yetti yuz yil ilgari Mavlono Rumiyl Sharq va dunyo adabiyotiga ta'siri nihoyatda katta rol o'ynadi. Bu adabiyot nafaqat axloq, din, iymon, e'tiqod, go'zallik, falsafa, tarix, boringki, inson ma'naviy kamoloti uchun nimaiki zarur va muhim bo'lsa, o'shalarni botindan, o'zining shaxsiyatidan axtarish muhim degan konsepsiyani ilgari suradi. Rumiyl birgina "Nafsi buzg'unlarga qibla sufradir" hikmati har qanday xasis va ta'magir, yolg'onchi va firibgarlar uchun dunyo bir qoqib tashlaydigan sufra, ya'ni qiblani nazarda tutmoqda. "Din ishlari bilan mashg'ul bo'lginki, dunyo sening ortingdan chopsin" degan hikmati asrlar osha siz bizga hayot va uning mohiyati nimalarga olib kelishidan saboq berib kelmoqda. Mana shu tomondan olib qaraydigan bo'lsak, hayotning barcha qirralari Rumiyl olamida katta va umuminsoniy, irqi, dini, tili va qamvi kim bo'lishidan qat'iy nazar yo'l ko'rsatuvchi mayoq sifatida qadrlanadi.

Ulug'bek Hamdam har bir asarida Rumiyl an'alarini yangicha formatda, zamonga moslab, uni yangilab, sayqallab, oddiy tilda tushuntirishga harakat qiladi. Ba'zi o'rinlarda Kafka va Kamyu kabi ekzistensial falsafa bilan pardoqlab, inson fenomeniga orginal bir mushohada qilishga chorlovchi obrazlarni taqdim qiladi. Ana shu konsepsiya yozuvchining orginal, biri ikkinchisini taqozo etmaydigan xilma-xil epizodlarga boy ifodalari bilan boytishga uringanligini namoyon etadi.

Prof. M.Xolbekov “Jahon adabiyotida umuminsoniy tamoyillar” nomli maqolasida quyidagi mulohazalarni ilgari suradi: “Jahon xalqlari o‘rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar XVIII asrning ikkinchi yarmidan keng miqyosda rivojlana boshladi. Bu jarayon bir-biridan uzoq mintaqalardagi xalqlar badiiy adabiyotlarining o‘zaro aloqalari, ta’siri kuchayishiga omil bo‘ldi hamda jahon madaniyatining sifat va mazmun jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishini ta’minladi. Ushbu yangilanish, o‘zgarish o‘sha davr adabiy jarayonida to‘la anglab olingan edi. Bunga mashhur nemis shoiri Gyote o‘zining ijobiy munosabatini bildirib, ilk marotaba “jahon adabiyoti” atamasini iste’molga kiritgandi”[1]. Keltirilgan misoldan anglashiladiki, insoniyat badiiy tafakkuri rivojida yuzaga kelgan xilma-xil uslublarning mohiyatida – odamzodni bilish, anglash, uni tushunish, his qilish, tasvirlash prinsiplari mavjlanadi. Ulug‘bek Hamdam jahon adabiyotiga va ayniqsa, badiiy ijod qonuniyatlarini teran istifoda etishda tarjimonlik faoliyati ham qo‘l keldi. Demak, Rumiyning “Ichindagi ichindadir” nomli mohiyatni anglatishga qaratilgan go‘zal bir muhtasham asari mana shu xilma-xillikka bo‘lgan eshikning ochilganligini kafolatlaydi.

Ma’lumki, insoniyat tarixi davomida qanchadan-qancha davrlar, o‘rish va o‘zgarishlar, inqiloblar, urushlar, yo‘qotishlar, fojealar, ekologik keskinliklarni boshidan kechirib kelmoqda. XX asrga kelib insoniyat tamomila bir yangi, o‘zidan oldingi asrlardan mutlaqo farq qiladigan dunyoga yuz ochdi. Insoniyat mana shu asrda kosmosni zabt etdi, fan-texnika sohasida inqilob yasadi, nanotexnologiyalar hayotimizning barcha jabhalarini qamrab oldi. Isajon Sulton aytganidek, insoniyat bugungi VUSA[2] dunyoning to‘riga ilindi. Har tomondan qamrab olgan nanotexnologiyalar oqimida ruh va ko‘ngil kishisi bo‘lish naqadar og‘ir ekanligini yozuvchi Ulug‘bek Hamdam o‘z asarlari timsolida, konsepsiyasida badiiy tafakkuri orqali bugungi zamondosh insonga tushuntirishga harakat qiladi. Rumiya yozuvchining botiniy muhabbati haqida so‘z borganda, u yaratgan qahramonlar “Muvozanat”da – Yusuf, “Isyon va itoat”da – Akbar, “Sabo va Samandar”da – Samandar, “Ota”da – Po‘lat, “To‘rtko‘cha”da – O‘lmasda yaqqol namoyon bo‘ladi. Yozuvchi ana shu qahramonlarini xatolari, kamchiliklari, yutuflari, salbiy yoki murakkabligi bilan birbutun holda tasvirlar ekan, zamondosh insonni “nimadandir” ogoh bo‘lishga chorlayotgandek. Chunki adib qahramonlarning kasbi kori, o‘qituvchi, shifokor, tadbirkor, biznesmen, quruvchi, oshiq va boshqalardir. Shular atrofida jamiyat hayotiga turli rakurslardan, turli vaziyatlardan, holatlardan nazar tashlaydi. Ayni shu masalada yozuvchi o‘z qahramonlarining xarakterlari ziddi bo‘lgan obrazlarni ham olib kiradi. Ularning jamiyatdagi o‘rni, tutgan mavqei, adashishlari, yo‘qotishlari, iztiroblari bilan birga yaxlitlashtiradi. Yana shunisi ham qiziqki, yozuvchi ko‘pincha qahramonlariga ko‘ngil kishisi, ijodkor sifatida ham bir baho berishga diqqat qaratadi.

Jaloliddin Rumi hikmat shodilarining Ulug‘bek hamdam ijodiga qattiq ta’sir qilishi uning tasavvufiy qarashlaridan ilhomlanganini ham dalolatlaydi. Yozuvchi inson mohiyatiga safar qilar

ekan, bu haqda shunday yozadi: “Ichindagi ichindadur” asari ulug‘vorlik va soddalikning bir makonu bir zamonda sig‘ishib yashashining go‘zal namunasidir. Albatta, komil inson – avliyolik asrori haqida ko‘plab olimu fuzalolarning xilma-xil asarlari mavjud. Lekin ularning ayrimlarini mutolaa qilarkanmiz, o‘zimizni xuddi ertak o‘qiyotgan boladek sezamiz. Chunki ularda tasvirlangan avliyo yoki komil inson go‘yo osmonda uchib yurgan erkin qushchayu, siz biz zindonda – temir panjaradan uni umidsizligini kuzatib yotgan maxbus. Qushning ozodligidan, charx urib aylanishidan, baxtidan maxbusga ne naf? Qaytaga u ana shunday hur parvozi bilan bu bechoraning o‘z holiga ko‘nikib ketishiga to‘sqinlik qilib, iztirobini orttiradi, xolos. Rumiya esa unday emas. Rumi shohu gadoga ham, olimu avomga ham birdek xitob qiladi. Va har kimning qarshisiga o‘z hikmatlaridan bir ko‘prik tashlab, boshqalar nima desa deyaversin, lekin sening ham bu yo‘ldan o‘tishga haqqing bor, ki sen ham undan o‘tishga munosib va qodirsan, faqat g‘ayrat qil-da, kel!” deydi go‘yo. Boshqacha aytsak, Jaloliddin Rumiya “Ichindagi ichindadur” asari insonlik va ilohiylik o‘rtasiga qo‘yilgan mustahkam ko‘prikdir”[3]. Darhaqiqat, Rumiya ifoda etayotgan ummondan yetti iqlimdan kelgan sayyohlar ham, olimlar ham, yozuvchi, shoir, tarixchi, juda ko‘plab fan tili bilan shug‘ullanadigan odamlar chuqur hurmat bilan o‘rganadilar. Paulo Koeloning “Alximik” asri ham Rumiya birgina hikmati evaziga dunyoga kelgan. Buni jahon adabiyotshunoslari tasdiqlab qo‘yibdi.

Mavzu doirasi kengaygani sayin badiiy adabiyotning talqin kriteriylari ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etib boradi. Tahlillarimiz aniqligi uchun uning 1996 yil yozib tugallangan “Yolg‘izlik” qissasiga diqqat qaratib ko‘ramiz:

“Faqirlik – davosi qiyin dard. Faqirlik sen tomon ucha kelayotgan o‘qqa “ko‘ksingni yalang‘ochlab tut!” amridir. U bag‘ringda uxlab yotgan imkonlaringni tunda bildirmay bo‘g‘izlab ketgan jallod! Faqirlik - jon taslim qilayotgan o‘g‘lingga sen sotib olib berolmagan dori! U - boshqorong‘ilikda ko‘ngli meva tusab, yo‘lingga ilhaq bo‘lib o‘tirgan xotiningning dam umidvor, dam umidsiz nafas olayotgan ko‘zlari! Faqirlik – og‘riq, iztirob, musibat... U – baxtsiz tasodif oqibatida uzilib ketgan qo‘l-oyoqlaringdan keyin qolgan parchang – dumaloq gavgang yanglig‘ ilojsiz. Faqirlik xuddi shu gavganing bosh qismiga sanchilib botib turgan ko‘zlar kabi mo‘ltiraydi, vujudning o‘zi singari sudraladi. Faqirlik izhor qilinmay qalbingda muzlagan olov – ishq. U mahrumlik, tanlash imkoni bo‘lmagan alamzada. Faqirlik misoli so‘qir – tutganini qo‘ymaydi. U ota bilan bola, aka bilan uka, er bilan xotin, qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni orasidan o‘tib turuvchi qora mushuk. Faqirlik -yulduzingga yetmagan qisqa qo‘ling – armoning, dodu faryoding, yolg‘izliging... To tirik ekansan, u seni tinch qo‘ymaydi, boshing uchun katta pul olgan killerdek orqangdan izma-iz yuradi, qulay fursat poylaydi. Kambag‘allik san‘atkor uchun ham o‘ta xavfli. Chunki u - Ta‘ma deb ataluvchi farzand tug‘ib berishga qodir maxluq. Sen esa jajjigina mavjudot

atrofida parvona bo‘lib, yalang‘och badanini o‘rayman deya asaringdan kiyim tikib yashashga majbur qolishing mumkin... bir umr...”[4]

Inson bo‘lish haqidagi jahon adabiyotida juda ko‘plab asarlar mavjud. Ulug‘bek Hamdam qahramonlari jisman yolg‘iz emas, ruhan yolg‘izdir. U bu asarini ramziy-majoziy yo‘sinda yozgan. Biroq asarning realistik shakli “Muvozanat” romanida boshqacha aks etadi. Asar qahramoni A.ning kundaligini o‘qishdan boshlanadi. A.esa hayotning barcha jumboqlariga, tizginsiz savollariga o‘z mushohadalari, kuzatishlari negizida javob topishga harakat qiladi. XX asrning 90-yillaridan keyingi oshkoralik, ochiqlik va shaffoflik siyosati badiiy adabiyotni ham chetlab o‘tmadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri mamlakatimiz o‘zining strategik hamkorlarini topishga, madaniy-ma‘rifiy aloqlarni mustahkamlashga bel bog‘ladi. Yevropa Vatanimiz bilan barcha jabhada hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. Shuning barobarida, o‘zbek adabiy aloqlari yangi bir davrni boshlab berdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuni qayd etish joizki, Ulug‘bek Hamdam mazkur qissasida uchta jihatni o‘quvchining o‘z tafakkur yoki mushohada tarozusiga tortib, tahlil qilishni qo‘yadi. Yan‘i qahramonning nega bu qadar jamiyat, inson va tabiat bilan chiqisha olmay, AROSATda yashaydi? Nega u o‘z “men”ini boshqalar kabi elga namoyon etmaydi. Asar kundalikdan iborat. Buni F.Kafka, yoki A.Kamyuning qarashlari kabi ramzlar, ishoralar, metaforalar yig‘indisidan tashkil topgan INSON va yashash mantiqining uzviyligi deb tushunish mumkin. Qahramon bot-bot Xudoga nola qiladi. Bunday asar Lev Tolstoyning “Iqrornoma”, Nazar Eshonqulning “Tun panjaralari” qissa, esselarida avtobiografik talqin metodologiyasini yodimizga solishi tabiiy.

Xulos shuki, global muammolar jahon adabiyotida kuzatilayotgan shaklu shamoyil, uslub va ifoda tarzi xususida adabiyotshunos Rahimjon Rahmat shunday fikrlarni keltiradi: “Yolg‘izlik”ning ismsiz, qiyofasiz, makon va zamonsiz qahramoni balchikqa tushib qolgan katta baliqqa o‘xshaydi. Bechora suzay desa, suzolmaydi, o‘lay desa, buning ham iloji yo‘q. Arosat! U ayoli va farzandini qattiq yaxshi ko‘radi, ularning baxtsiz bo‘lishini mutlaqo istamaydi. Oila – hayot dengizidagi yolg‘iz kemasi. Undan ayrilish halokat ekanligini anglaydi. Lekin shunga qaramay, begona go‘zal ayollarni sog‘inadi, ularga nisbatan nafaqat shahvoniy, balki ruhiy sog‘inch ham his etadi”[5]. Ko‘rinadiki, “makon va zamonsiz” qahramoni haqida so‘z borarkan yozuvchi bu qissadagi asosiy voqelik, ya‘ni syujet ikkinchi qismda ro‘y beradi. Badiiy asarni endilikda qism va bo‘laklarga, syujeti, kompozitsiyasi va uning turli xil ifoda vositalari negizida emas, qaysi makonda, qaysi zamonda (xronotop) ro‘y berishi bilan ham talqin qilish muhimligi ayonlashdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Холбеков М. Жаҳон адабиётида умуминсоний тамойиллар// Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2010. №44.
2. Volatility, Uncertainty, Complexity, Ambiguity

3. Улуғбек Ҳамдам. Ичиндаги ичиндадур. –Т: “Янги аср авлоди”. 2024. –Б.4.
4. Ёлғизлик, -Б.35.
5. Раҳимжон Раҳмат. Бир ёруғлик излаймиз ҳамон. Сўз боши. –Т., “Академнашр”. 2010. –Б.5